

5. Тюрина Н.В. Понятие адаптации в современной психологии // Вестник Астраханского государственного университета. – 2007. – №5. – С. 152-157
6. Управление персоналом организации: Учебник / Под ред. А.Я. Кибанова. – 4-е изд., доп. и перераб. – М.: ИНФРА-М, 2014. – 695 с.
7. Управление персоналом: учебник для бакалавров / под ред. А.А. Литвинюка. – М.: Издательство Юрайт, 2013. – 434 с.
8. Управление персоналом: учебник. / Под ред. Т.Ю. Базарова, Б.Л. Еремина. –2-е изд. перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ, 2002. – 560 с.
9. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. СПб.: Питер; М.: Смысл, 2003. – 860 с.
10. Чанько А.Д. Опыт диагностики организационной культуры российских компаний / А.Д. Чанько // Российский журнал менеджмента, том 3. – 2005. – №4. – С. 29-54
11. Человеческий капитал: теория и практика управления в социально-экономических системах: Монография / Под общ. ред. Р.М. Нижегородцева и С.Д. Резника. – М.: ИНФРА-М, 2014. – 290 с.

LINGVOKULTUROLOGIYANING TADQIQOT OBYEKTI

Shonazarova Hulkaroy Bunyod qizi

*O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi ixtisoslashtirilgan
maktab o'quvchisi
Xorazm, O'zbekiston*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada antroposentrik paradigmasing yo'nalishlardan biri bo'lgan lingvokulturologiya va unga oid bo'lgan tushunchalar, uning maqsad va vazifalari tadqiq etilgan. Bundan tashqari, olamning milliy til (lisoniy) manzarasi, lisoniy shaxs, lingvokulturtema, moddiy-maishiy lingvokulturtema haqida ham fikr-mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, til va madaniyat, olamning milliy til (lisoniy) manzarasi, lisoniy shaxs, lingvokulturtema, moddiy-maishiy lingvokulturtema, fe'l-atvor lingvokulturtemasi, aksiologik lingvokulturtema, madaniyatning asosiy oppozitsiyalari.*

Lingvokulturologiyaning asosiy obyekti madaniyat va tilning faoliyat jarayonida o'zaro bog'lanishi, o'zaro ta'siri va bu o'zaro ta'siri sharhini til ma'lumotlari asosida bir butun tizimli yaxlitlik sifatida o'rganishdan iboratdir. Tilshunoslikning asosiy mavzusi til bo'lib, u esa o'z navbatida madaniyatning sharti, asosi va mahsulidir. Lingvokulturologiya predmeti sifatida til birliklari, nutq faoliyati elementlari va insonning nutqiy xulqi ishtiroy etadi. Lingvokulturologiya tadqiqotlarining maqsadi jonli milliy tilda mujassamlashgan moddiy madaniyat va mentalitet hamda til jarayonlarida namoyon bo'ladigan, ularning ikki taraflama til va etnos madaniyati bilan bo'lgan izchilligini o'rganishdan iboratdir. V.V.Krasnixning yozishicha, "Lingvokulturologiya – bu madaniyatni namoyon bo'lishi, aks etishi va qayd etilishidir". U bevosita jahonning milliy manzarasi, til onggi va mental-lingval majmuuning xususiyatlarni o'rganish bilan bog'liqdir. Lingvokulturologiyaning asosiy obyekti madaniyat va tilni faoliyat jarayonida o'zaro bog'lanishi, o'zaro ta'siri va bu o'zaro ta'siri sharhini til ma'lumotlari asosida bir butun tizimli yaxlitlik sifatida o'rganishdan iboratdir. Qiyosiy lingvokulturologiyaning predmeti bo'lib ikki va undan ortiqroq madaniyatlarning asosiy qarama-qarshi turgan barcha arxetipik (azaldan avvaldan qolgan, o'ziga xos) tasavvurlari, etalonlar, simvolik tasavvurlari (inson ongingin natijalari sifatida afsonalar, rasm-rusmlar, ertaklar, folklor va til birliklarida, inson nutqiy faoliyatining elementlarida o'z aksini topgan), shuningdek ushbu elementlar va birliklarining xususiyatlari xizmat qiladi.

Qiyosiy lingvokulturologiyada quyidagi tushunchalar asosiy deb qabul qilinadi: olamning milliy til (lisoniy) manzarasi, lisoniy shaxs, lingvokulturtema, moddiy-maishiy lingvokulturtema, fe'l-atvor lingvokulturtemasi, aksiologik lingvokulturtema, madaniyatning asosiy oppozitsiyalari;

"Olamning milliy lisoniy manzarasi" terminiga O.A.Kornilov shunday ta'rif beradi: "Tillar qancha ko'p bo'lsa, olamning shuncha milliy lisoniy manzarasi mavjud, bu tillarning har biri jamoaviy etnik ongingin koinotdagi inson mavjudligini anglash va kategoriyalashtirish borasidagi ko'p asrlik faoliyatining noyob natijalarini aks ettiradi".

Lingvokulturtema – lingvokulturologiyaning asosiy tushunchasi va asosiy birligidir. Uning eng umumiy ta’rifi – bu til belgisidirki, o‘zining tarkibiga madaniy komponentlarni kiritib olgandir. Lingvokulturtema atamasi V.V.Vorobyov tomonidan kiritilgan bo‘lib, bu majmuaviy darajalararo birlikdir, lingvistik va ekstralinguistik mazmunning dialektik birligini aks ettiradi. V.V.Vorobyov tushunchasi bo‘yicha lingvokulturtema til belgisining shakli, uning mazmuni va bu belgining hamrohi bo‘lgan madaniy ma’nosining majmuidir. Lingvokulturtemani tushunish uchun Vorobyov uning tarkibida potetsial ravishda hozir bo‘lgan tarkibiy elementning chuqur ma’nosiga katta ahamiyat beradi.

Har qanday tilning o‘ziga xos xususiyatlari, avvalambor, xalq og‘zaki ijodida namoyon bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi tilini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Chunki xalq poetik ijodida tilning rang-barang boyligi o‘zining badiiy ifodasini topgan. Xalq og‘zaki nutqida paydo bo‘lgan jozibador narsalarni xalq poeziyasi tanlaydi, ardoqlab saqlaydi va taraqqiy ettiradi. Xalq og‘zaki ijodining tili kishilik jamiyatining eng birinchi davrlaridan boshlaboq shu o‘rganilayotgan tilning tarixiy taraqqiyotida muhim ro‘l o‘ynaydi. Shu sababli xalq og‘zaki ijodi nutqi ko‘p marotaba tadqiqot obyekti sifatida tilshunoslar e’tiborini jalb qilgan. Lekin bugungi kungacha o‘rganilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida folklor namunalari sof lingvistik jihatdan o‘rganilagan, topishmoqlar tili uni yaratuvchi xalq bilan birgalikda “til-madaniyat-inson” uchligi doirasida o‘rganilmagan.

D.Xudoyberanova “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasida lingvokulturologiyaning asosiy o‘rganish obyektlaridan biri pretsedent birliklar ekanligini qayd etadi. Pretsedent termini tilshunoslikda birinchi marta Y.N.Karaulov tomonidan qo‘llangan. Rus tilshunosligida muayyan til egalariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so‘z birikmalari, jumlalar hamda matnlar pretsedent birliklar sifatida qayd etiladi. Hamda bunday birliklarning pretsedent nomlar, pretsedent jumlalar, pretsedent matnlar kabi turlari ajratiladi. Shu bilan birgalikda metaforalar ham tilning asosiy lingvomadaniy birliklaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek xalqining madaniy meroslaridan biri bo‘lgan xalq og‘zaki ijodiga doir manbalar va ayniqsa, topishmoqlar, maqollar va matallar xalqimiz san’ati va madaniyatini, uning milliy tilidagi turli qirralarni o‘zida saqlab avloddan avlodga etkazib beruvchi vosita – zanjirdir. Shu sababli ham tilni lingvokulturologik nuqtayi nazardan topishmoqlar bilan bog‘lab o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Topishmoqlar tarkibida pretsedent nomlar, turg‘un va erkin o‘xshatishlar, metaforalarning ko‘plab uchrashi bi janr namunalarini lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish uchun asos bo‘ladi. Masalan ba’zi bir topishmoqlardan namunalar keltiramiz: Boyning o‘g‘li Boysari, soqollari sap-sari. – Sabzi; Ushbu topishmoqda Boysari nomi qo‘llangan. Bu nom o‘zbek xalq dostonlarida juda ko‘p uchraydi. Masalan “Alpomish” dostonida Boysari boy va obro‘li shaxs sifatida ta’riflanadi. Poliz ekini bo‘lgan sabzi qadimdan dorivorligi, vitaminlarga boyligi bilan qadrlanib kelingan. Ushbu belgilar sabzini obruzli tarzda Boysariga o‘xshatish uchun asos bo‘lgan deya olamiz.

Topishmoqlar topilishi zarur bo‘lgan narsa va hodisalarning muhim belgilarini ajratish asosiga tuziladi. Topilishi zarur bo‘lgan narsa va hodisalarning nomi yashirilgani holda,

uning muhim belgilari topishmoqning shakliy strukturasida o‘z ifodasini topadi. Natijada topishmoq ikki qatordagi mazmuniy tuzilishga ega bo‘ladi. Topishmoqlar tilimizning haqiqiy ko‘zgusi bo‘lib, unda o‘zbek tilining leksik qurilishi, so‘z va iboralarining semantik qirralari o‘z ifodasini topgan. Bu janrlar tilida hatto shunday so‘z va iboralar qo‘llanganki, bular hozirgi o‘zbek adabiy tilida va shevalarda deyarli ishlatilmaydi. Metaforik matnli topishmoqlarni o‘zga xalqlar og‘zaki ijodi bilan qiyosan o‘rganish tilimizni o‘ziga xos jihatlarini yanada yaqqolroq namoyon etishi bilan ahamiyatlidir.

Topishmoqlar ikkilamchi nominatsiya sifatida oldin nomlangan narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar va harakat holatlarni qayta nomlaydi. U dastavval, metafora tarzida, qolaversa, jonli nutqning turli xil ko‘rinishlari sifatida qo‘llanadi. Metafora yashirin qiyoslashga imkon beradi.

Tabiiyki, topishmoq mazmuniy mundarijasi uchun so‘zlarning yashirin ko‘chma ma’nolari muhimdir. Chunki shu ma’nolari bilangina ular yashirin dastlabki holatga aloqador bo‘la oladi. Yashirin ma’nolar haqidagi nazariyalar 1938-yilda, dastlab, taniqli grammatishtlar B.L.Uorf, S.D.Katsnelson, V.fon Gumbolt va boshqalarning ishlarida mahsus tadqiq qilingan. Ularning qarashlarida yashirin ma’nolar aniq morfologik ifodalarga ega bo‘lmagan so‘z yoki so‘z birikmalarining semantik va sintaktik belgilaridir. Lekin ular fikrning qurilishi uchun juda muhimdir.

Topishmoqlar mazmuniy mundarijasining o‘ziga xos xususiyati uning tagma’no va yuza ma’nolarga egaligida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Topishmoqlar topilayotgan narsa va hodisalarning muhim belgilari asosiga quriladi va ularning mazmuniy mundarijasi yuza ma’no bilan tagma’nolardan tashkil topadi. Tagma’noni aniqlash yuza ma’noni hosil qilayotgan muhim differensial belgilarga asoslanadi.

Topishmoqlar narsalarning markaziy belgilariga tayanadi. Predmetning hamma belgilaridan birinchi o‘ringa ko‘proq bittasi chiqadi, qolgan belgilari esa ikkinchi o‘ringa surilib qoladi va go‘yoki yo‘qolib ketadi. Masalan: Qoziq ustida qor turmas, (tuxum) topishmog‘ida berilgan qor so‘zida ham oqlik belgisi birinchi jihatga chiqqan. Bu erda implitsit belgi – oqlik, dumaloqlik belgilari bo‘lib, ushbu belgilar asosida topuvchi topishmoqning javobini oson topishga erishadi. CHunki bunday muhim uzvlar yashiringan narsani boshqa narsa va hodisalardan ajratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Афанасьев А. Н. Происхождение мифа. – М., 1996. С.35.
2. Аристотель. Поэтика. – Л.,1927. С.39.
3. Babanazarova S.A. O‘xshatishlarda olamning lisoniy konseptuallashtirilishi. Filol.fan.nomz. ...diss. – Urganch, 2023.
4. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. – М.: Курс лекций. ИТДГК, Гнозис, 2002. С.12.
5. Қобулова У. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати. Филол. Фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2007. – 49 б.

6. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – 49 б.
7. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий-лисоний хусусиятлари. Филол.фан.номз. ... автореф. –Тошкент, 2000. -7 б.
8. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Фил.фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2009.